Investor uchun uning manfaatiga mos boʻlgan loyiha uni amalga oshirishdagi yuzaga keluvchi risklarning toʻliq bartaraf etilganidir. Loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda muqobil loyihalarni taqqoslama tahlil etishning ahamiyati juda kattadir. Loyihalarning taqqoslama tahlili, hatto, ularning qaysi biri eng kam riski, yuqori foydali, tez qaytimni, kafolatlangan daromadli, hayotiyligi ishonchli investitsiya loyihasi ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bunday tahlil investorning moliyalashtirishga loyiq haqiqiy raqobatbardosh loyihani aniqlashi va tanlashiga imkon beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Investitsion faoliyat maʼlum miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bu sarflangan resurslardan investorlar maʼlum daromad, foyda olishni koʻzlaydi. Mazkur foyda esa investorlarning harajatlarini, inflyatsiya omilini, tadbirkorlik riskini qoplashi lozim. Ammo amaliyotda investorlar har doim ham kutilgan, rejalashtirilgan natijalarga erisha olmaydilar. Buning asosiy sabablaridan biri – risklarning mavjudligidir.

Investitsion faoliyatda risk - bu investitsiyalarni qisman yoki toʻliq yoʻqotish, kutilgan daromaddan kamroq foyda olish va loyihada koʻzlangan maqsadlarga erisha olmaslik xataridir. Loyihadan qanchalik koʻp miqdorda daromad kutilsa, u shunchalik yuqori riskni hisoblanadi.

Shu oʻrinda risk tushunchasi toʻgʻirisida toʻxtalib oʻtsak, iqtisodchi Ye.S.Stoyanovaning “Moliyaviy menejment” kitobida “risk — bu zararning paydo boʻlishi yoki prognozlashtirilganidek daromad ololmaslik xavfi ehtimoli” deb taʼrif beradi [2; 178 b].

P.G. Graboviy, S.N. Petrovalar, S.I. Poltavsevning “Zamonaviy biznesda risk” kitobida ta’riflanishicha, “Risk deganda ma’lum bir ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida korxona tomonidan oʻz resurslarini ma’lum qismidan ayrilish, foyda ololmaslik yoki qoʻshimcha xarajatlar qilish ehtimoli”dir [3; 101 b].

Iqtisodchi V. A. Chaliy-Priluskiyning “Bozor va risk” kitobida keltirilishicha: “Risk — bu tanlov sharoitida bajarilgan shunday faoliyatki, qachonki muvaffaqiyatsizlik sharoitida tanlov oldidagiga nisbatan ogʻirroq sharoitga tushib qolish ehtimoli mavjud boʻladi” [4; 63 b].

Rus olimi V.M. Granaturovning fikricha, “Risk — bu muqarrar tanlov sharoitidagi noaniqlikni bartaraf qilish bilan bogʻliq faoliyat boʻlib, bu jarayonda moʻljallangan natijaga erishishni, muvaffaqiyatsizlik va moʻljaldan farqlanishlarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash imkoniyati mavjud” [5; 68 b].

Oʻzbek iqtisodchi olimasi Sh.Z.Abdullayevaning fikricha: risk va xavf-xatar alohida narsa, ya’ni risk bu iqtisod subyektining faoliyatidir va u tanlov bilan bogʻliq. Bu faoliyat subyektning xavf- xatar sharoitidagi tanloviga asosan amalga oshiriladi. Xavf, xatar qanchalik yuqorilashgan sari subyekt shunchalik risk qilmaydi va risk nolga yaqinlashadi [6; 360 b].

Yuqoridagi ta’riflardan koʻrinadiki, riskni tushunishda umumiy qilib aytganda, ikki xil qarash mavjud. Birinchidan, risk — bu obyektiv, ya’ni xavf-xatar, muvaffaqiyatsizlik va uning natijasida resurslarining bir qismidan yoki butunlay ajralish, rejalashtirilgan daromadni ololmaslik, zarar koʻrish deb qarash.

Ikkinchidan, risk — bu subyektning xavf-xatar, muvaffaqiyatsizlik, zarar koʻrish ehtimolini bila turib, yaxshi natijaga erishish umidida faoliyatni amalga oshirish deb qarash. Demak, ikkinchi xil qarashda risk faoliyatdir, faoliyat boshlash yoki boshlamaslikning sharti. Riskka bunday ta’rif berish ham ma’qul emas. Chunki riskni subyektning tanlov asosidagi faoliyati deb tushungan holatimizda riskni xar xil turlarga boʻlib oʻrganish va tasniflashga hojat qolmasdi. Riskni bunday tushunganda riskka ta’sir qiluvchi omillar toʻgʻrisida gapirish mumkin, lekin misol uchun “mamlakat riski” deb riskni alohida nomlay olmasdik. Risklarni boshqarishga ham hojat qolmasdi. Shundan koʻrinadiki, oʻzbek iqtisodchi-olimlari ham riskni xavf-xatar va tavakkalchilik tushunchalari bilan ifodalaydi. Fikrimizcha, xavf-xatar va tavakkalchilik tushunchalarini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.

Risklarni boshqarish boʻyicha ishlar bosqichi, risklarni tahlil qilish boʻyicha ishlarning mazmuni va belgilanishi, loyiha ishtirokchilari tomonidan risklarni tahlil qilish natijalarini oʻrganish, ishlab chiqilgan har qanday investitsion loyihadagi pul mablagʻlari oqimi kelgusi davrga tegishli va istiqbolli xarakterga ega. Shunga aniq ishonch hosil qilish mumkinki, istiqbol notoʻgʻri boʻlishi mumkin, ya’ni koʻzlangan daromadlarga ega boʻla olmaslik mumkin. Shuning uchun tahlil ishlarining eng muhim qismi uning oqibatini hisobga olish, investitsion loyihalar ekspertizasi jarayonida asosiy vosita sifatida risklarni tahlil qilish hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotining metodologik asosi iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni oʻrganishga dialektik-materialistik yondashuv, umumiy ilmiy tadqiqot usullari, tizimli yondashuv, statistik kuzatuvlar, ekspert baholari va boshqalar. Nazariy pozitsiyalar va xulosalarni asoslash uchun tadqiqotning tahliliy asoslari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasining statistik ma’lumotlari va boshqa axborot manbalari asoslanadi.

**Natija va muhokamalar.** Bozor iqtisodiyotida moliyalashtirish manbalarining ishonchliligi, xavfsizligi, riskliligi, daromaddorligi, likvidliligi, aniq maqsadlari va ularga erishish usullari oʻrtasida chambarchas aloqadorlik bor. Investitsiyalardan kelajakda kutilayotgan samaraga ularning xavfsizligini, daromaddorligini, kapitallashuvini va likvidliligini optimallashtirish hamda investitsiya maqsadlarini kelishtirish, yaʼni murosaga keltirish orqali erishiladi.

Statistik koʻrsatkichlarga koʻra 2022- yilning yanvar-sentyabr oylarida Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 190,0 trln. soʻm oʻzlashtirilgan boʻlib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ni tashkil etdi (1-rasm).




**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar miqdori**

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021- yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 6,3 % punktga kamayib, 13,7 % ni yoki 26,1 trln. soʻmni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 163,9 trln. soʻm yoki jami investitsiyalarning 86,3 % investitsiyalari oʻzlashtirilib, 2021- yilning mos davridagi koʻrsatkichga nisbatan 6,3 % punktga koʻpaydi.

2022- yilning yanvar-sentyabr oylarida korxona va tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 62,6 trln. soʻm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 32,9 % ini tashkil etdi.

Bevosita toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalardan Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha 23,7 trln. soʻm, yoki 2021- yilning mos davridagi koʻrsatkichga nisbatan 0,8 % punktga kamaygan holda jami investitsiyalardagi ulushi 12,5 % ga teng investitsiyalar oʻzlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari boʻyicha tarkibida eng yuqori oʻsish surʼati korxona va tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalarda kuzatilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 131,4 % ni tashkil etganligi qayd etildi.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 40,0 trln. soʻm investitsiyalar oʻzlashtirilib, jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi koʻrsatkichga nisbatan 2,0 % punktga kamayib, 21,0 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda investitsion loyihalashtirish amaliyotida loyihaviy risklarni tahlil qilish tushunchalari endigina yuzaga keldi, biroq avval toʻplangan xalqaro tajribani hisobga olganda risklarni tahlil qilish har qanday investitsion loyihalar biznes-rejasining ajralmas qismi boʻlib qoldi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, investitsion loyihalar ekspertizasida loyiha boʻyicha barcha maʼlumotlardan foydalaniladi, maʼlumotlarning toʻgʻriligi chuqur oʻrganiladi, kutilishi mumkin boʻlgan salbiy holatlar va uning oqibatlari baholanadi. Bundan tashqari, risklarni tahlil qilish loyihalar ekspertizasidan uni amalga oshirishni boshqarish jarayoniga oʻtishda “koʻprik” vazifasini oʻtaydi.

Umuman olganda, risk – bu yoʻqotish ehtimolidir. Loyiha riski loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi xavf-xatar darajasini anglatadi. Hozirgi kunda amaliyotda loyiha risklarini tahlil qilishga imkon beruvchi turli yondashuvlar va usullar qoʻllanilmoqda. Investitsion loyihalarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqlik masalasini hal etishda risk tahlili asosiy oʻrinni egallab, bu asosida loyiha yuzasidan mumkin boʻlgan barcha yoʻqotishlar oʻrganilib, ularning oldini olish yoki tegishli vaziyatlarda ularni benuqson hal etish yoki pasaytirish choralari ishlab chiqiladi. Riskdan keladigan yoʻqotishlarni kamaytirish yoki barham top tirish va ular bilan bogʻliq salbiy oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif etish uchun, eng avvalo, risklarning vujudga kelishiga imkon beruvchi omillarni aniqlash, ularning ahamiyatini baholash, yaʼni “risk tahlili” deb nomlanuvchi ishni bajarish lozim boʻladi. Risk tahlilining maqsadi investorga investitsiya loyihasini amalga oshirishda qatnashishning maqsadga muvofiqligi toʻgʻrisidagi qarorlarni qabul qilish va mumkin boʻlgan moliyaviy yoʻqotishlardan himoyalanish boʻyicha chora- tadbirlar ishlab chiqish uchun kerakli maʼlumotlarni taqdim etishdan iborat.

Shunga koʻra, risk tahlilini loyihaning barcha ishtirokchilari mustaqil tarzda olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Risk tahlili investitsion loyihaning barcha ishtirokchilari — buyurtmachilar, bank, sugʻurta kompaniyalari, lizing kompaniyalari, mol yetkazib beruvchilar tomonidan olib borilishi lozim. U, odatda, bir-birini toʻldiruvchi ikki turga:

- risklarning turlari, omillari va doirasini aniqlash maqsadini koʻzlovchi sifat tahlili;
- alohida risklar kabi loyihalarning ham hajmini hisoblash imkonini beruvchi miqdoriy tahlil.

Risklarni baholash risklarni pasaytirish usullarini qoʻllashdan iboratdir. Risklarni baholash deganda risk darajasini sifat va miqdor jihatdan aniqlash tushuniladi. Risklarni pasaytirish usullari turlicha boʻlib, ular risk turiga va risk guruhiga qarab tanlanadi. Birinchi bosqichda risklar tahlili loyiha tashabbuskorlariga investitsiya kiritish yoki kiritmaslik haqida sodir boʻlishi mumkin boʻlgan zararlar haqida maʼlumot beradi. Ammo risklar loyiha hayotini barcha bosqichlarida boʻlganligi sababli risklar tahlili loyiha tugagunga kadar davom etadi. Umuman olganda, risklarni aniqlash — sifat tahliliga; risklarni baholash — miqdor tahliliga taalluqlidir. Risk tahlilining miqdor usullari orasida ommabop usullar quyidagilardir: statistik usul, statistik tajribalar usuli; maqsadga muvofiq keladigan xarajatlar tahlili; ekspert baholash; analitik usullar va boshqalar. Risk tahlilining ahamiyati investitsiya loyihasining salohiyatli ishtirokchisiga, investorlarga loyihani maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish haqidagi qarorlarini qabul qilishi uchun zaruriy maʼlumotlarni berishi bilan izohlanadi.

Risklarni boshqarish — bu risk va foyda miqdorini oqilona qoʻshilmasini aniqlashga qaratilgan harakatlardir. Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi — ularni pasaytirish hisoblanadi. Risklarni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlarga boʻlinadi:

1. Risk omilini aniqlash;
2. Risk omilini tahlil qilish va baholash;
3. Risklarni pasaytirish boʻyicha ishlarni rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish;
4. Risklarni oldini olish va nazorat qilish;
5. Risklarni boshqarish usullarini tanlash va qoʻllash;
6. Risk vaziyatlari va ularni oqibati haqida maʼlumot toʻplash va kelajakka tavsiyalar tuzish.

Risk omilini aniqlash deganda risk sababini, yaʼni loyihaga taʼsir qila oladigan voqea yoki vaziyatlarni aniqlash tushuniladi. Riskni boshqarishdan maqsad eng avvalo riskning oldini olishdir. Qaror qabul qilayotgan shaxs yuz berishi mumkin boʻlgan noxush voqealarning oqibatini yaqqol tasavvur etishi kerak. Bu uning keyingi harakatlarini belgilab beradi. Bank boshqaruvi xodimlari oʻz ishlarida amal qilish uchun xatarni oldini olish taktika va strategiyasini ishlab chiqishi kerak.

Risklarni boshqarishdagi asosiy vazifa — amaldagi bozor konyunkturasiga mos darajada risklarni minimallashtirish, kreditlash xizmatlari bozorida bank pozitsiyasini minimum saqlab qolishdir.

Riskni boshqarishdagi asosiy yoʻllar quyidagilar: risklarni ajratish; risklarni loyiha ishtirokchilari oʻrtasida taqsimlash; moddiy taʼminotni olish (garov); moliyaviy taʼminotni olish (kafolat yoki kafillik); risklarni kredit boʻyicha yuqori foiz stavkasiga koʻchirish; risklarni venchur kreditlashga qabul qilish; qarzlar boʻyicha yoʻqotishlarni qoplash uchun fondlarni shakllantirish va boshqa. Bular riskni boshqarish boʻyicha quyidagi ish yoʻnalishlarini talab qiladi: har bir mijoz boʻyicha doimiy monitoring olib borish; maʼlum bir mijozning asosiy xoʻjalik faoliyatiga aloqador tarmoq holatining doimiy monitoringini yuritish; kafolatni jalb qilish va tahlil etish; risk uchun kompensatsiya olish (garov, kafolat va boshqalarni amalga oshirish). Risklarni ajratish deganda moliyalashtirish manbalarining harakatidagi ogʻirlikni qarzdorning oʻzi bilan birgalikda boshqa bir necha investorlar oʻrtasida boʻlinishi tushuniladi. Yirik qarzdorlarning loyihalarini moliyalashtirishda bu tabiiy, bu amaliyot kichik tadbirkorlik doirasidagi tadbirkorlar uchun keng tarqalmagan. Bu shu bilan bogʻliqki, soʻralayotgan kreditning chegaralangan summasida investorlar oʻrtasida risklarni taqsimlanishi va nazorati boʻyicha operatsion xarajatlar bank kreditlash riskini kamaytirishga qilinadigan iqtisodni oshirishi mumkin.

Riskni boshqarishda loyiha ishtirokchilaridan tashqari sugʻurta tashkilotlari ham bevosita ishtirok etadi. Ular riskni baholashda oʻz usullari va yoʻllarini amalga oshiradilar, bu amalga oshirish reja — dasturlarini nazorat qilib boradilar.

Natijalarni baholash — bu maʼlum bir loyiha doirasidagi risk- menejmenti boʻyicha faoliyatlarining yigʻindisi. U keng maʼlumotlar toʻplami asosida oʻtkaziladi va risk tahliliga tuzatishlar kiritish, risk- menejmentining alohida choralarini qoʻllash, samaradorligini baholash, riskni boshqarishda barcha qilingan xarajatlarni baholash maqsadida 53 oʻtkaziladi. Natijalarni baholash orqali olingan koʻrsatma va xulosalar keyingi loyihalarni amalga

oshirishda qoʻllaniladi. Investitsiya loyihasi riskini baholash usullari orasida eng koʻp qoʻllaniladiganlari quyidagilar:

- loyihaning sezgirlik tahlili;
- “Zararsizlik nuqtasi”ni aniqlash;
- barqarorlikni tekshirish usuli.

Yuqorida koʻrib oʻtilgan riskni boshqarish bosqichlari va riskni baholash usullari yordamida risk sababli boʻladigan yoʻqotishlarni pasaytirish, ular bilan bogʻliq koʻngilsiz oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif qilish mumkin. Loyiha risklarini boshqarishning u yoki bu turdagi vositalarining, mexanizmlarining qoʻllanilishi amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari risklarining aniq turlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar koʻlamiga, shuningdek, ularning loyihani amalga oshirish natijalariga taʼsiriga bogʻliqdir.

Risklar barcha loyihalar uchun umumiy boʻlgani kabi har bir investitsiya loyihasining oʻziga xos xususiyatlariga, muayyan tasniflariga qarab maxsus risklar ham boʻlishi mumkin. Bunday sharoitlarda risklarni tahlil etish, ularni boshqarish vositalarini ishlab chiqishda kuchli va tajribali mutaxassisning malakali bilimiga tayaniladi. Bunda loyiha risklarini boshqarish bir martalik yoki bitta jarayondan iborat boʻlmasdan, balki u bir qancha bosqichlarni oʻz ichiga qamrab oladi.

Bu jarayonlar investitsiya loyihasini amalga oshirishdagi risklarni pasaytirish yoki bartaraf etishnigina emas, balki loyihaning ijobiy natijalarini taʼminlash yoki oshirishga ham boʻysundirilgan boʻladi. Quyida investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda aniqlanuvchi, hisobga olinuvchi risklarni tahlil qilish va ularni loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlaridagi boshqarish tizimining bosqichlari keltirilgan:

- risklarni boshqarishni rejalashtirish;
- risklarni tasniflash;
- risklarni sifatli baholash;
- risklarni miqdoriy baholash;
- risklarni rejalashtirish (aniqlash) va ularni hal etish uslublarini tanlash;
- risklarning monitoringini olib borish.

Loyiha risklarini boshqarishning yuqoridagi barcha bosqichlari bir- biri bilan oʻzaro bogʻliqlikka ega. Har bir bosqich har bir loyihada bir marta bajariladi.

**Xulosa.** Investitsiya loyihalarining amalga oshiriladigan tarmoq xususiyatiga qarab yuqorida tilga olingan bosqichlar qisman oʻzgarib turishi mumkin. Masalan, elektroenergetika va transport, neft va neftni qayta ishlash tarmoqlari va shu kabi davlat ahamiyatiga ega boshqa tarmoqlar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan qatʼiy yuqori ahamiyat kasb etuvchi davlat tomonidan nazorat qilib boriluvchi tarmoqlar hisoblanadi.

1. Risklarni boshqarishni rejalashtirish. Risklarni boshqarishni rejalashtirish deganda aniq loyiha boʻyicha boshqarishni rejalashtirish va qarorlarni qabul qilish jarayoni tushuniladi. Shuningdek mazkur jarayon oʻz ichiga loyiha risklarini boshqarish jarayonini kadrlar bilan taʼminlashni tashkil etishni ham qamrab olishi lozim.

2. Risklarni tasniflash. Risklarni tasniflash jarayoni doirasida loyihaga haqiqatan ham taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan risklar aniqlanadi va bu risklarning tasnifi keltiriladi.Shuni taʼkidlash lozimki, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risklarni tasniflash ularni boshqarishning eng muhim jarayonlaridan hisoblanadi.

3. Risklarni sifatli baholash. Risklarni sifatli baholash – loyihada tasniflangan risklarning sifatli tahlilini amalga oshirish va ulardan eng xatarlilarini ajratib olishdir. Risklarni sifatli baholash risklarning paydo boʻlish shart-sharoitlarini baholashni va ularning standart yoki nostandart usullar va vositalar bilan loyihaga taʼsiri aniqlanadi. Bizning fikrimizcha, aksariyat hollarda tahlilning universal usullarini qoʻllash olinadigan natijalarning koʻzlangan darajadagi ishonchligini taʼminlashga imkon bermaydi.

4. Risklarni miqdoriy baholash. Adabiyotlarda risklarni miqdoriy baholash sifatida risklarning paydo boʻlish ehtimolligini aniqlash va ularning loyihaga taʼsiri tushuniladi. Fikrimizcha, miqdoriy tahlil, aksariyat hollarda, risklarni boshqarishning mustaqil bosqichi hisoblansa-da, u risklarni sifatli baholash bosqichi bilan uzviy bogʻliqlikda qoʻllanilishi lozim.

5. Risklarni rejalashtirish (aniqlash) va ularni hal etish uslublarini tanlash. Adabiyotlarda risklarni rejalashtirish (aniqlash) va ularni hal etish uslublarini tanlash sifatida loyihaga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi risklarni pasaytirish uslublari va texnologiyalarini ishlab chiqish tushuniladi.

6. Risklarning monitoringini olib borish. Risklarning monitoringini olib borish bosqichi doirasida aniqlangan risklar, bartaraf etilmagan risklar va risklardan himoyalash rejasining bajarilishi taʼminlanganligi aniqlanadi hamda uning samaradorligini baholash ishlari olib boriladi.

Shuni eʼtiborga olish lozimki, investitsiya loyihalari risklarini boshqarishda ularning tahlil qilinish natijalariga asoslanib, boshqarish usullari tanlanadi.

## Литература/Адабиётлар/References:


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
2. Финансовый менеджмент: теория и практика: Учебник / Под ред. Е. С. Стояновой. — 5-е изд., перераб.и доп.— М.: Изд-во «Перспектива», 2003. — 656 с.
3. Риски в современном бизнесе / П.Г. Грабовый, С.Н. Петрова, С.И. Полтавцев и др. — М.: Изд-во «Алане», 1994.
4. Чалый-Прилуцкий, В. А. Рынок и риск. Методические материалы по анализу, оценке и управлению риском / В. А. Чалый-Прилуцкий. М. : НИУР : Центр СИНТЕК, 1994.
5. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения : Учеб. пособие / В. М. Гранатуров. - 2. изд., перераб. и доп. - Москва : Дело и сервис, 2002. - 158 с.
6. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. Ўқув қўлланма. – Т.: Молия, 2002 й.
7. Kurbonalievna, I. G., & Adxamovna, B. G. (2021). Innovative solutions for effective conflict resolution in higher education institutions. South Asian Journal Of Marketing & Management Research, 11(6), 33-37.
8. Kurbonalievna, I. G., & Adxamovna, B. G. (2021). The main causes of conflicts in higher educational institutions and the concept of their management. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 239-244.
9. Kurbonaliyevna, I. G. (2022). TOʻGʻRIDAN-TOʻGʻRI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MILLIY IQTISODIYOT UCHUN AHAMIYATI. Zamonaviy taʼlim: muammo va yechimlari, 1, 271-275.
10. Исомитдинова, Г. (2023). INVESTITSIYALARNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNING YANGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(5), 88-98.

11. Asrorbek, B. (2024). The Company's Relationship Systems with Commercial Banks. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(1), 28-37.
12. Ibroximovna, N. I. (2022). KORXONALARDA EKSPORT-IMPORT OPERASIYALARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALLALARI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 5(2), 274-283.
13. Кудбиев, Д., & Нишонова, И. И. (2022). Особенности Учет Экспортно-Импортных Операций В Узбекистане. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(11), 11-23.
14. Исомитдинова, Г. К. (2022, May). Иностранные инвестиции-основа развития национальной экономики. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 202-205).
15. Якубов, В. Г. (2022). Теоретические Основы Оценки Стоимости Бизнеса. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(12), 28-39.
16. Tohirovich, Q. N. (2023). Specifics of Accounting for Lease Operations of the Organization. Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice, 1(2), 31-38.
17. Qudbiyev, N. T. (2023). KORXONALARNING INNOVATSION STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH XUSUSIYATLARI: KORXONALARNING INNOVATSION STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH XUSUSIYATLARI.
18. Atabaeva, Z. A., & Khojaev, A. S. (2020). Investment activity and analysis of investment projects. ISJ Theoretical & Applied Science, 5(85), 714-720.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I3Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 3 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).